

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| X.X.Abduraxmonov | |
| Yengil atletika mashqlari yordamida maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini oshirish | 199 |
| B.B.Umarov | |
| Abu Bakr narshaxiy asarida Buxoro shahri tavsifi..... | 203 |
| R.Mardonov | |
| G'arb va sharq falsafasining pedagogik asoslari: tahlil va muhokama | 207 |
| X.O'.Samatov | |
| Tasavvufda tariqat a'zolarining jamoadan alohidalanishi | 210 |
| Z.A.Boboyeva | |
| Yangi O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish usullari..... | 217 |
| G.U.Radjabova | |
| Ta'lim tizimi va ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari | 220 |
| N.N.Bobojonov | |
| Talaba yoshlarda milliy armiyaga sadoqat tuyg'usini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari | 226 |
| E.S.Yuldashyev | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda suggestiv qobiliyatlarni rivojlantirish modeli | 231 |
| N.V.Karimova | |
| Farg'ona vodiysi antik davr shahar topografiyasini o'rganilishiga oid..... | 236 |
| A.M.Toshpo'latov | |
| Yoshlarni harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi. | 241 |
| I.A.Maxmudova | |
| Talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masala sifatida | 247 |
| A.N.Qosimov | |
| Umumiy o'rta maktab o'quvchilari harakat faolligi va jismoniy tarbiyaga qizishini o'rganish | 250 |
| F.Sharipova | |
| Birinchi bosqich talabalariga klinik lug'atni o'rgatish | 255 |
| G.Ulug'bekova, Sh.Adhamov | |
| 7-12 yoshdagi bolalarda yuzning fizionomik balandligi o'sish dinamikasi | 260 |
| Z.Hamrayeva | |
| Qisqa masofalarga yugurishda qizlarda tezlik va quvvat fazilatlarini rivojlantirish metodikalari..... | 263 |
| U.Jabborov | |
| 11-12 yoshli o'g'il bolalar o'rtasida voleybol o'ynashning texnikaviy usullari | 269 |
| M.Kataeva | |
| Ta'lim jarayonida mobil ta'limning o'rni va ahamiyati | 275 |
| O.Yadgarova | |
| Shaxsni o'rganishda projektiv metodikalarning diagnostik imkoniyatlari | 279 |
| I.Imomov | |
| Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida yuzaga keladigan nizolarni pedagogik tashxis etish | 283 |
| M.Babakulova, M.Radjabova | |
| Interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida xitoy tilini o'rganish ko'nikmalarini oshirish | 288 |
| X.Tojiyev | |
| Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning texnologik - pedagogik shart-sharoitlari | 292 |
| D.Buranova | |
| Tibbiyot uchun kommunikativ ingliz tili o'qitishning samarali metodi sifatida | 300 |
| D.Yo'ldosheva | |
| Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari | 303 |
| G.Abdullayeva | |
| Psixologiya – chet tillarini o'rganishning asosiy jihati | 308 |

**TALABALARNING KREATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB
MASALA SIFATIDA****РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ
КАК ВАЖНАЯ ЗАДАЧА****DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS AS AN IMPORTANT
ISSUE****Maxmudova Ibodatxon Azizxon qizi¹****¹Maxmudova Ibodatxon Azizxon qizi**

– Fargʻona davlat universiteti, chet tillar kafedrasini oʻqituvchisi.

Annotatsiya

Talabalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bugungi kun taʼlim tizimining dolzarb vazifasi hisoblanadi. Maqola maqsadi ushbu vazifaning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Tadqiqot metodlari nazariy solishtirma usulda olib boriladi. Tadqiqot natijalari orqali kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish usullari oʻrganib chiqiladi.

Аннотация

Развитие творческой компетентности учащихся является актуальной задачей современной системы образования. Цель статьи состоит в том, чтобы объяснить суть этой задачи. Методы исследования проводятся в рамках теоретико-сопоставительного метода. По результатам исследования изучаются методы развития творческих компетенций.

Abstract

Development of students' creative competence is an urgent task of today's education system. The purpose of the article is to explain the essence of this task. Research methods are conducted in a theoretical comparative method. Through the results of the research, the methods of developing creative competences are studied.

Kalit soʻzlar: taʼlimni raqamlashtirish, mustaqil taʼlim, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, kreativ kompetensiyalar, kreativlik.

Ключевые слова: цифровизация образования, самостоятельное образование, компетентность, профессиональная компетентность, творческие компетенции, креативность.

Key words: digitization of education, independent education, competence, professional competence, competence, creative competences, creativity.

KIRISH

Mamlakatimizdagi oliy taʼlim muassasalarida taʼlimning sifati va samaradorligini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy taʼlimda taʼlim ishtirokchilarining kreativ kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarbligi taʼlimni rivojlantirishning mavjud holati bilan belgilanadi. Bugungi kunda taʼlim tizimida yangi pedagogik va raqamli texnologiyalar, ommaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining keng joriy etilishi ularning oʻquv jarayoni sifatiga, taʼlim beruvchining ilmiy-pedagogik imkoniyatlariga, taʼlim oluvchining esa bilimlarni oʻzlashtirish hamda mutaxassislikni egallash darajasiga taʼsir qilmoqda. Taʼlim jarayonining metodlari va metodikasida, birinchi navbatda, taʼlim ishtirok chilarining kreativliklarini ochib berish uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni taqdim qiladigan auditoriyadan tashqari taʼlim beruvchining rahbarligidagi mashgʻulotlarda hamda taʼlim oluvchining individual mustaqil ishlarida modifikatsiyalashgan mazmun, yangi texnologiyalar, innovatsiyalarni izlash zarurligini taʼkidlaydi. Kreativ innovatsion gʻoyaga ega mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy taʼlim tizimining asosiy vazifalaridan biri boʻlgani uchun ushbu vazifaga faqatgina kreativ oʻqitish metodikasini maqsadli olib borish bilan erishish mumkin; bunda taʼlim oluvchiga yangi bilimlarni tushunishiga, ulardan yangilik yaratishi, mavjud muammolarga oʻziga xos original yechim topa bilish va amaliyotga samarali tatbiq etishiga imkon berilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagog olim N.A.Muslimov boshchiligidagi tadqiqotchilar pedagogik kompetentlik va pedagogik kreativlik asoslari hamda boʻlajak professional oʻqituvchilarning kasbiy professionaligini shakllantirish boʻyicha qator izlanishlar olib borishgan. N.A. Muslimov oʻz asarlarida “kompetentlik” va “kasbiy kompetentlik” tushunchalar mohiyatini aniq ifodalab bergan [1].

Mohiyatiga ko'ra, kompetentlik (ingl. "competence" – "qobiliyat") faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish ma'nosini bildiradi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi [1]. Mazkur ishda talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish asoslari o'rganildi.

"Kreativlik" tushunchasi va uning kasbiy faoliyatdagi o'rnini aniqlashda bir necha yondashuvlarni ko'rish mumkin. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati, sifatlari, belgilari, shaxsda kreativlikni rivojlantirish omillari N.A.Muslimov maktabining tadqiqotchilari tomonidan ko'rsatib berilgan.

Mohiyatiga ko'ra, *kreativlik* (lot., ingl. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi *ijodiy qobiliyati* ma'nosini bildiradi. Shaxsning kreativligi uning dunyoqarashi, so'zlashishi, berayotgan fikrlari va qarashlari, faoliyatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik har sohada qobiliyatlilik, zehni o'tkirlikni ko'rsatib beradi [1].

Talabaning kreativligi amalga oshiriladigan tadbirlar samaradorligiga yordam beradi. Bu kreativlik insonning nafaqat o'z ishini sifatli bajarishi, balki yangi imkoniyatlarni izlash va ularni hamyonbop narxlarda amalga oshirishiga qiziqishi bilan belgilanadi; u har qanday vaziyatda tezda nostandart qarorlarni qabul qilishga va har qanday faoliyatni tashkil etish va bajarishga ko'proq kuch va ishtiyoq bilan yondashishga qodir. Shuni ta'kidlash kerakki, kreativlik nafaqat amalga oshiriladigan faoliyatga, balki talabalarning o'z shaxsiyatlarini rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Kreativlik o'zini o'zi anglash, takomillashtirish va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib, karera bosqichlaridan ko'tarilishga olib keladi.

Demak, talabaning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning kasbiy– ijodiy faoliyati shunchalik samarali bo'ladi. Talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodologiyasini yaratish uchun, avvalo, "kompetensiya" va "kreativ kompetensiya" tushunchalari va ularning mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritish lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

N.A.Muslimov rahbarligida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmuada [5] ta'lim sohasidagi nufuzli xalqaro ekspertlar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayoniga ikki xil: "Hard skills – (ingliz. "qattiq" malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda "Soft skills" – (ingliz. "yumshoq", "moslashuvchan" malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar joriy qilish taklifi keltirilgan.

Ma'no-mohiyatiga ko'ra "Hard skills" malaka darajasini aniqlash va o'lchash mumkin bo'lgan bilimlar majmui sifatida (matnni kompyuterda terish malakasi, avtomobilni boshqarish ko'nikmasi, ingliz tilida gapirish, matematik bilim, kompyuter dasturlaridan foydalanish ko'nikmasi), "Soft skills" aniq va umumiy o'lchov birligiga ega bo'lmagan moslashuvchan, egiluvchan malakalar (kreativlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, hissiy barqarorlik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va h.k.) sifatida qayd etilmoqda. "Hard skills" – "qattiq" malaka darajasiga ega bo'lish uchun muayyan kasb bo'yicha aniq bilim zarur bo'ladi va bu ko'nikmalarning mavjudligi imtihon o'tkazish orqali aniqlanadi.

"Soft skills" – "yumshoq" kompetensiyalar (ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyati, qat'iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.k.) esa ko'p hollarda inson xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bogliq bo'lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

Pedagog olim Musurmonova yaratgan darsligida [3] kasbiy kompetensiyalar, kreativ kompetensiyalar, fanlar bo'yicha, umumiy fanlar bo'yicha maxsus kompetensiyalar, ularning tasnif va ta'riflari, ularni ta'lim ishtirokchilarida shakllantirish bosqichlari va talaba kasbiy kompetentligi yo'nalishlarini asoslab bergan. Darslikda jahon ta'lim amaliyotida keltirib o'tilgan quyidagi muhim kompetensiyalar belgilab berilgan:

– turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan *bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar*;

- *ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar* (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a'zosi rolini bajarish);

- *mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar* (mehnat bozorida holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlari, o'zini o'zi uyushtirish ko'nikmalarini baholash va takomillashtirish);

- *maishiy sohadagi kompetensiyalar* (oilaviy hayot aspektlari, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

- *madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar* (shaxsning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanishi).

“Muhim kompetensiyalar” tushunchasi chet el olimlari tomonidan taqdim etilgan ko'plab zamonaviy modellar asosida yotadi. “Muhim kompetensiyalar” insonning egallagan ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash, shuningdek, amallarni bajarishning umumlashgan usullaridan foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

XULOSA

Xulosa qilib, oliy ta'limda kredit-modul tizimiga o'tish va ushbu tizimda o'qish jarayonida mustaqil ta'limga keng o'rin berish talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy omilidir. Talabalarning mustaqil ishlashi ularning har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishida samarali ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagi xulosa va takliflarni keltiramiz:

Birinchidan, kompetensiya shaxsning biror soha bo'yicha sifatli va samarali faoliyat olib borishi uchun zarur bilim va ko'nikmalar majmuasini belgilasa, kompetentlik shaxsning ushbu ko'nikmalarni egallaganlik darajasini, ya'ni foydalanish qobiliyatini belgilaydi.

Ikkinchidan, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga umumiy holda aniqliklar kiritilgan bo'lsa ham tadqiqotchilar tomonidan bir xil tahlil qilinmagan. Bu esa zamonaviy shaxs ko'nikmalariga qo'yilayotgan talablar asosida kompetensiyalarni chuqurroq o'rganish, ularni klassifikatsiyalash (tasniflash) va rivojlantirish usullarini yaratishni taqozo etadi.

Uchinchidan, kreativ kompetensiyalarning sifatlari va ularni rivojlantirishga oid fikrlar tahlili ko'rsatadiki, tadqiqotda talabalarda kreativlikni rivojlantirish zarurati, zarur komponentlar va ular orasidagi aloqadorlik, kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish usullari hamda vositalari singari masalalar to'liq yoritilmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raximov Z.T. Ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda pedagogik kreativlik va uning zarurati. // *Sovremennoe obrazovanie* (Uzbekistan). 2019. № 8 (81). S. 3-9.

2. Muslimov N.A., Ishmuxamedov R.J., To'raev A.B. “Pedagogning kasbiy professionaligini oshirish” moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T., 2021. – 108 b.

3. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: Sano- standart, 2015. – 120 b.

4. Kreativlik kompetensiya sifatida. Monografiya. / Ed. prof. MM. Kashapova, dots. T.G. Kiseleva, dots. T.V. Ogorodova. - Yaroslavl: IPK "Indigo", 2013. - 392 p.

5. Bryakova I.E. O'qituvchining ijodiy qobiliyatlari ta'limni rivojlantirishning yangi vektoridir. // *Pedagogik tasvir*. 2019 yil, 3-son (44).